

Alisher Navoiy siymosi tarixda

Rahim G'aybulla o'g'li Mardanov
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida vatanparvarlik tuyg'ulari ifodalanishining o'ziga xos jihatlari, bobomizning ijodiy merosini chuqurroq o'rganish va targ'ib etish, umumbashariy g'oyalarning mohiyatini ochib berish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik ruhi, insonparvarlik g'oyalari, she'riyat, ilohiy mo'jiza, milliy iftixor, tafakkur

The figure of Alisher Navoi is in history

Rahim Ghaibulla oglu Mardanov
Jizzakh Polytechnic Institute

Abstract: This article discusses the peculiarities of the expression of patriotic feelings in the works of Alisher Navoi, the deeper study and promotion of the creative heritage of our ancestor, revealing the essence of universal ideas.

Keywords: patriotic spirit, humanistic ideas, poetry, divine miracle, national pride, thinking

Ulug' mutafakkir, shoir hazrat Alisher Navoiy haqida so'z borganda, ko'pchilikning yodiga u zotning ona tilimiz rivojiga qo'shgan hissasi, ijodiy va ilmiy merosi, o'zbek adabiyotida tutgan mavqeyi xususidagi qator ma'lumotlar keladi. Biroq, shoir faqat ijod bilan shug'ullanibgina qolmay, o'z davrining yetuk mulozimlaridan biri, atoqli davlat va jamoat arbobi ham bo'lgan. Bugun biz o'zbek adabiyoti va adabiy tiliga asos solgan Navoiyning shaxsiyati va rahbar sifatidagi boshqalarga o'rnak bo'lishga munosib fazilatlar borasida so'z yuritmoqchimiz.

XX asr adabiyoti xususida so'z ketganda ham mana shu kayfiyat, mana shu hamohanglik ko'zga yaqqol tashlanadi. Erkin Vohidov o'zining "Shoiru she'ru shuur" asarida quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi:

"Biz bugun Alisher Navoiy nomisiz o'zbek madaniyatini tasavvur qilolmaymiz. Uning nurli she'riyati, yorug' siymosi ruhimizga singib ketgan. Shoirning yuksak badiiyat bilan muzayyan bo'lgan, chuqur insonparvar g'oyalar bilan yo'g'rilgan ijodi asrlar osha bizni hanuz o'ziga rom qiladi, ko'ngillarimizni zavqu shafq hamda iftixor

tuyg'ulari bilan, ongimizni ezgulik fikrati bilan boyitadi, bizni adolat uchun, inson qalbining mangu erki uchun kurashmoqqa chorlaydi".

Shoirning otasi G'iyosiddin Kichkina temuriylar saltanatining sodiq mulozimlaridan, onasi ham shu xonadon xizmatidagi ayollardan biri edi. Uning o'zi bu haqda shunday bayon etgandi:

"Otam bu ostonning xokbezi,

Onam ham bu saro bo'ston kanizi."

G'iyosiddin Kichkina oilasi bilan temuriylar xonadoni o'rtasida ilgari zamonlardan ko'kaldoshlik, ya'ni emikdoshlik bo'lgan. 1469-yil Navoiyning yaqin do'sti temuriy shahzoda Husayn Boyqaro Hirotni egallaydi va Xuroson hukmdori bo'ladi. Shu vaqtdan e'tiboran Alisherning hayoti yangi bosqichga yuz tutib, u mamlakatning siyosiy hayotida faol ishtirok eta boshlaydi. Shu yili Xuroson hukmdori uni davlat muhrdori etib tayinlaydi. 1472-yili esa vazir lavozimiga ko'taradi. Navoiy hayotining e'tirofqa loyiq jihati shundaki, shoir vazirlik faoliyatida do'sti nomidan foydalanib, shaxsiy manfaatga erishish, shon-shuhrat orttirish, boylik to'plash yo'lida foydalanmadi. U egallab turgan mansabi orqali mamlakatning madaniy va ilmiy taraqqiyotini yuksaltirish, xalq turmush sharoitini yaxshilashni o'ziga maqsad qilib qo'ydi. Navoiy o'zi tug'ilgan Hirot shahrini o'zgacha mehr bilan tasvirlaydi. U davlat arbobi sifatida xalq bilan muloqot qilishi, xalq dardi bilan yashashi, Xuroson mamlakatining taraqqiy topishi, unda tinchlik va farovonlikning o'rnatilishiga juda ko'p harakat qilgan. Bularning qanchalik amalga oshgan–oshmaganidan qat'iy nazar, Navoiyning o'z vataniga muhabbati, uning obodonchiligi uchun qilgan xizmatlari, bizga ayon bo'lgan tarixiy haqiqatdir.

Buyuk yozuvchi Hirot va Xurosonni quyidagicha tasvirlaydi:

Bog'lari har biri jannat misol,

Ravzaga har go'shasidan go'shmol...

Haddi shimoliysi sori ikki nahr,

Ul ikkidan xurramu serob shahr [2.Alisher Navoiy "Hayrat ul abror" G'afur G'ulom nomidagi nashroyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2006.10-bet]

Shaharning mahallalari ko'p, ularning har biri bir shahar singaridir.

"Shaharda bir xil binolar behisob, shahar devoridan chetdagilar bu hisobga odamlar o'ltirishi mumkim bo'lgan joy bor. Mahallalar toyinli bo'lishi uchun mahalla ahllari shahar-shaharga bo'lingan. Bu mahallalarga shaharlarning oti berilgan; shuning uchun Hirotda yuzta shaharning nomi bor ". [3.Alisher Navoiy "Hayratul abror" G'afur G'ulom nomidagi nashroyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2006.376-bet]

Navoiy avvalo, butun kuchini yurtda tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga qaratdi. Sulton Husayn Boyqaro podshohlik qilgan, hazrat Navoiy esa hukumatda bosh vazir vazifasini egallab turgan davrda hech bir mamlakatga qarshi bosqinchilik urushi olib borilmadi. Shoir vaqf ishlarini tartibga soldi. Shuningdek, savdo-sotiq,

hunarmandchilikni rivojlantirish, qishloqlarda dehqonchilik madaniyatini yuksaltirishga katta ahamiyat qaratdi va bunga erishdi. O'sha davrda shaharlar, xususan, Hirot kun sayin obod bo'la boshladi.

Tarixchi Xondamirning qaydiga ko'ra shular ma'lumki, 1480-yillar davomida Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirot va mamlakatning boshqa shaharlarida bir nechta madrasa, 40 ta rabot, 17 ta masjid, 10 ta xonaqoh, 9 tadan hammom va ko'prik, 20 ga yaqin hovuz qurdirgan yoki ta'mirlatirgan. Ular orasida Hirotidagi "Ixlosiya", "Nizomiya" madrasalari, "Xalosiya" xonaqohi, "Shifo'iya" tibgohi, Marvdagi "Xusrafiya" madrasasi, Mashhaddagi "Dorul-huffoz" xayriya binosini alohida ta'kidlash mumkin. Shuningdek, shoir tomonidan Hirotning Injil anhuri bo'yida 0,25 sotixlik (30 jerib) hovli qurdirilgan. U yerda 100 kishiga dasturxon yozish imkoni bor edi. Tarixiy manbalarga ko'ra, shoir Hirot va butun Xuroson mamlakatida barpo ettirgan inshootlar soni 300 dan ortiq bo'lgani ma'lum.

Insonparvar vazir o'rta asr uyg'onish davrining boshqa ulug' zotlari qatorida haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini butun hayoti davomida ko'rsata oldi va nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi avlodlarga ham o'rnak bo'larli darajada amallar qildi. U nohaqlik, adolatsizlikka qarshi kurashdi va amaldorlarning o'z vazifalarini suiste'mol qilishlari va ta'magirliklarini fosh etdi. Aholining yordamga muhtoj qatlamini o'z himoyasiga oldi. Siyosiy masalalarni hal qilishda ham insoniy tamoyillarga suvandi. Jamiyatda barcha ijtimoiy qatlam va qavmlarga birdek munosabatda bo'lish g'oyasini ilgari surdi hamda bu yo'lda qolganlarni o'ziga ergashtira oldi. Navoiyning tashabbusi bilan hammaga teng xizmat qiladigan binolar qurila boshlandi.

Husayn Boyqaroning davlat xazinasidagi xarajatlari ko'payib ketgan paytda oddiy xalqqa qo'shimcha soliq solinishini oldini olish maqsadida Alisher Navoiy o'z hisobidan 25 000 dinor pulni to'lab yuborgani ham uning xalqparvar zot ekanligidan dalolat beradi. Boshqacha aytganda, u rahbar sifatida xalqning turmush darajasidan voqif bo'lgan.

Navoiy otasidan qolgan merosni uddaburon tadbirkor sifatida sarflab, tez orada katta mablag'ga erishgan va bu boylikni yuqorida ta'kidlaganimizdek, xayrli amallarga sarflagan. Eng gavjum bozorlarda Navoiyga tegishli savdo rastalari ham bo'lgan. Diqqatga molik jihati shundaki, bu rastalarda tosh-tarozilarning to'g'riligi, xaridor haqiga xiyonat qilinmayotgani, sotilayotgan mahsulotlar ustiga sarflangan mablag'dan ortiqcha pul qo'yilmayotganini shaxsan shoirning o'zi nazoratga olgan.

Shoir butun ijodiy faoliyatini insoniyatning baxti uchun kurashga, xalqning osoyishtaligi, obodonchilik ishlariga, san'at va adabiyot rivojiga bag'ishladi. U doim adolatga tayangan mamlakat barpo etishni orzu qildi. Uning bu yuksak niyati garchand to'liq amalga oshmasa-da, ezgulik yo'lidagi amallari asrlar osha madh etib kelinmoqda. Shoirning yuksak fazilatlariga limmo-lim asliyatini o'zining o'lmas

asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi. U qalami orqali tabiat va jamiyat qonunlariga shaxsiy munosabatini bildirgan. Shoir asarlaridan birida:

“Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q. Dar kimda bu ikki yo‘q - imon yo‘q va har kimda imon yo‘q - andin odamiylik kelmak imkoni yo‘q”, - deb yozgan edi. Navoiy insoniy sifatlar bir-biri bilan naqadar uzviy bog‘liqligini ta’kidlab, iymoni bor insonda boshqa hislatlar kamol topishiga urg‘u bergan. Chin insoniy fazilat egasigina yaxshiliklar qilishga qodirligiga to‘xtalgan.

Alisher Navoiy biz yuqorida tilga olgan amallari bilan xalq orasida hurmat qozongan bo‘lsa-da, qora niyatli amaldorlarning ko‘p tazyiq va fitnalariga uchradi. Shunga qaramay u, o‘zi tanlagan haq yo‘lida ildam odimladi. Ana shu jihatlari uchun ham shoir ijodi va hayot yo‘li umrboqiylikka yuz tutdi. Uning siymosi hamda ijodini Xondamir, Vosifiy, Husayn Boyqaro, Bobur kabi tarixchi olimlar va davlat arboblari o‘z asarlarida tilga olishdi.

Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z asari “Boburnoma”da Navoiy shaxsiyatiga ijobiy sifatlar bilan to‘xtalgan. Mamlakatimizda shoirning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, uning o‘lmas asarlarini yurtimiz va xorijiy mamlakatlarda yanada keng targ‘ib qilish hamda xotirasini abadiylashtirish borasida qilingan va amalga oshirilib kelinayotgan ishlar ham bisyor.

O.Sharafiddinov, V.Mahmud, Oybek, Y.G‘ulomov, I.Sulton, A.Zohidov, V.Abdullayev, A.Qayumov, S.G‘aniyeva va boshqa o‘zbek olimlari tomonidan Navoiyning hayot yo‘li haqida asarlar yaratilgan.

Jahonga mashhur bobomiz Alisher Navoiy 1501-yilning 3-yanvarida dunyodan ko‘z yumdi. U zotni dafn etish marosimida yomg‘ir shivalab turgani tarixchi Xondamir tomonidan quyidagicha ta’sirli holda ta’riflangan:

“Hatto tabiat ham motam tutdi”.

Biz esa doim ulug‘ bobomizni qalbimizda iftixor va yuksak hurmat ila yodga olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy “Найратул аброр” G‘afur G‘ulom nomidagi nashroyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2006 yil 254-bet
2. Ҳақиқатманзаралари.100 мумтоз файласуф /Тақдирлар, ҳикматлар, афоризмлар.-Т.:Янги аср авлоди, 2013.-239-б.
3. Alisher Navoiy haytatul-abror, T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989 yil 334-335 betlar